

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası,

Tarix fanlari doktori (PhD), Tursunova Gavhar taqrizi ostida

Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Ijtimoiy va gumanitar fanlar o'qituvchisi

Email: abduganievbekzod2409@gmail.com ORCID ID: 0009-0002-8597-3356

AQSH KONSTITUTSIYASINING QISQACHA YARATILISHI TARIXI VA XX ASR BIRINCHI YARMIDA AQSHDAGI KONSTITUTSIYAVIY O'ZGARISHLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada AQSh Konstitutsiyasining yaratilishi, tuzilishi va uning huquqiy tizimdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, konstitutsiyaga kiritilgan 27 ta o'zgartirishning har biri qisqacha yoritilib, ularning mamlakat tarixida tutgan o'rni va jamiyatga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqola AQShning demokratik qadriyatlarini mustahkamlashdagi konstitutsiyaning ahamiyatini va o'zgartirishlarning fuqarolik huquqlarini himoya qilishdagi rolini ochib bergan.

Kalit so'zlar: Huquqlar hujjati, Qonun chiqaruvchi hokimiyat (Kongress), 1776-yil 4-iyul, Konfederatsiya qonunlari, Filadelfiya Konstitutsiya, Mustaqillik Deklaratsiya, Virjiniya rejasi va New Jersey rejasi, Federalistlar, AQSH Konstitutsiyasi 27ta tuzatish.

Abstract: This article analyzes the creation and structure of the US Constitution and its place in the legal system. Also, each of the 27 amendments to the constitution is briefly covered, and their role in the history of the country and their impact on society is considered. The article revealed the importance of the constitution in strengthening the democratic values of the United States and the role of the amendments in protecting civil rights.

Key words: Bill of Rights, Legislature (Congress), July 4, 1776, Laws of Confederation, Philadelphia Constitution, Declaration of Independence, Virginia Plan and New Jersey Plan, Federalists, 27th Amendment to the US Constitution.

Kirish

Har bir davlatning huquqiy, siyosiy va ijtimoiy tizimi uning konstitutsiyasida aks etgan asosiy tamoyillarga tayanadi. AQSh Konstitutsiyasi dunyodagi eng qadimgi va eng barqaror konstitutsiyalardan biri hisoblanadi. 1787-yilda qabul qilingan ushbu hujjat nafaqat Amerika Qo'shma Shtatlarining asosiy qonuni, balki butun dunyoda demokratik jamiyat qurish yo'lida muhim namuna sifatida xizmat qilmoqda. Konstitutsiya federal tuzilma, hokimiyatlar bo'linishi va fuqarolarning asosiy huquqlarini himoya qilish kabi muhim tamoyillarni o'zida mujassam etgan. AQSh Konstitutsiyasining barqarorligi va uzoq umr ko'rishining asosiy sabablaridan biri uning moslashuvchanligi va davr talablari asosida o'zgartirishlar kiritish imkoniyatidir. Hozirgacha ushbu konstitutsiyaga 27 ta o'zgartirish kiritilgan bo'lib, ular fuqarolik huquqlari, siyosiy islohotlar va ijtimoiy adolat masalalarini qamrab olgan. Ushbu o'zgartirishlar tarixiy jarayonlar va jamiyat ehtiyojlarining mahsuli bo'lib, har biri o'z davrida muhim o'zgarishlarga yo'l ochgan. Mazkur maqolada AQSh Konstitutsiyasining yaratilish tarixi, asosiy tuzilmasi va unga kiritilgan 27 ta o'zgartirishning mazmuni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, har bir o'zgartirishning tarixiy sharoitlari va ularning jamiyatga ta'siri haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Ushbu maqola o'quvchilarga AQSh huquqiy tizimining negizlarini tushunishda yordam berish va uning global miqyosdagi ahamiyatini yoritishni maqsad qilgan.

Maqolada qo'llanilgan metodlar: Tarixiy-tahliliy, Taqqoslash (komparativ), Huquqiy tahlil, Sistemali yondashuv, Statistik tahlil, Empirik metod.

Natija: AQSh Konstitutsiyasi dunyodagi eng muvaffaqiyatli va barqaror huquqiy hujjatlardan biri sifatida tarix sahifalarida o'z o'rnini egallagan. Uning asosiy tamoyillari – hokimiyat tarmoqlarining ajratilishi, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari kafolatlari, shuningdek, davlatning federal tuzilmasi mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Konstitutsiyaga kiritilgan 27 ta o'zgartirish esa huquqiy tizimning zamon talablariga moslashuvchanligini ta'minlab, fuqarolarning asosiy huquqlarini himoya qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Ushbu o'zgartirishlar orqali irqiy, jinsiy va ijtimoiy tenglik masalalari hal etilgan, saylov huquqi kengaytirilgan va shaxsiy erkinliklar yanada mustahkamlangan. AQSh Konstitutsiyasi nafaqat ichki siyosiy va huquqiy barqarorlikni ta'minlashda, balki boshqa davlatlarning konstitutsiyaviy hujjatlariga ham ilhom manbai bo'lib kelmoqda.

Muhokama: AQSh Konstitutsiyasi va unga kiritilgan o'zgartirishlar nafaqat huquqiy hujjat, balki tarixiy tajribalar va ijtimoiy o'zgarishlarning mahsulidir. Ushbu konstitutsiya fuqarolarning huquqlarini kafolatlash, davlat hokimiyatini muvozanatlash va huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash borasida beqiyos rol o'ynagan. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, Konstitutsiyaning har bir o'zgartirishi uzoq davom etgan kurashlar, ijtimoiy harakatlar va siyosiy muhosabalarining natijasi sifatida dunyoga kelgan. Masalan, 13-o'zgartirish qullikni bekor qilgan bo'lsa, 19-o'zgartirish ayollarga saylash huquqini taqdim etdi. Ushbu o'zgarishlar nafaqat huquqiy tuzilmani yaxshiladi, balki jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarini kuchaytirdi. Biroq, konstitutsiyaning to'liq amaliyotga tatbiq etilishi doimo silliq kechmagan. Ayrim huquqiy normalar amalda qarama-qarshilik va tushunmovchiliklarga sabab bo'lgan. Shunga qaramay, AQSh Konstitutsiyasi o'zining moslashuvchanligi va kuchli poydevori tufayli vaqt sinovidan muvaffaqiyatli o'ta olgan. Kelajakda ham konstitutsiyaning roli va unga kiritiladigan ehtimoliy o'zgartirishlar mamlakatning ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishda davom etishi shubhasizdir.

XX asrning birinchi yarmi Amerika Qo'shma Shtatlari tarixida konstitutsiyaviy hokimiyatning mustahkamlanishi va Amerika jamiyatida chuqur islohotlar amalga oshirilgan davr hisoblanadi. Ispaniya bilan bo'lgan urushdan so'ng AQSH ichki islohotlarni va o'zgarishlarni amalga oshirishni boshladi. Jumladan, bu davrda Qo'shma Shtatlar Konstitutsiyaga federal boshqaruv tizimini tartibga solish uchun va mamlakat aholisi manfaatlarini ko'zlab bir qancha tuzatishlar kiritildi. Bungachada Qo'shma Shtatlar Konstitutsiyasiga bir qancha tuzatishlar kiritilgan. Umuman olib qaraganda, Qo'shma Shtatlar Konstitutsiyasiga butun davr mobaynida davlat va jamiyatning turli sohalariga oid bo'lgan 27 ta tuzatishlar kiritilgan. Bu 27 tuzatishlar dastlabki, 10 tasi "Huquqlar hujjati" deb ataladi. Bugungi kunda biz bilgan AQSH Konstitutsiyasi 7 moddadan iboratdir va quyidagilardan tarkib topgan:

I modda – Qonun chiqaruvchi hokimiyat (Kongress);

II modda – Ijroiya hokimiyati (Prezidentlik);

III-modda - Sud hokimiyati (sudlar);

IV modda - Davlatlar va federal hukumat;

V modda - O'zgartirishlar (Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish tartibi);

VI-modda - Ustunlik bandi (Federal qonun oliy hisoblanadi) va Vakillik qasamyodlari;

VII-modda – Ratifikatsiya (Konstitutsiyani ratifikatsiya qilish jarayoni);

1776-yil Britaniya Imperiyasidan mustaqillikka erishgan AQSHda 1776-yil 4-iyul kuni Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi. Lekin, bu Mustaqillik Deklaratsiya mamlakatni huquqiy jihatdan boshqarish uchun yetarli emasdi. Bu sababdan, mamlakatda Konstitutsiya yaratish g'oyasi ilgari surildi. Dastlab, 1781-yilda "Konfederatsiya qonunlari" deb nomlangan hujjat qabul qilindi. Ammo, bu hujjatning bir qator kamchiliklari bor di. Jumladan, bu hujjatda shtatlarning suvereniteti saqlab qolindi, bu esa markaziy hukumatni faqatgina cheklangan vakolatlarga ega bo'lishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, bu hujjatda soliqlar yig'ish, armiya tashkil qilish va tijorat sohasiga oid ko'plab masalalar bo'yicha kerakli moddalar yo'q edi. Shunday bo'lsa-da, AQSH 1781-1787-yillar mobaynida bu hujjat asosida boshqarildi. 1786-yilda kichik fermerlar tomonidan amalga oshirilgan Shays qo'zg'oloni yangi bir huquqiy hujjat yaratish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shu maqsadda, 1787-yilda Annapolisda Konvensiya chaqarildi, ammo bu Konvensiya muvaffaqiyatsiz yakunlandi. 1787-yil 25-mayda Filadelfiya Konstitutsiya yaratish bo'yicha yangi Konvensiya ish boshladi. Konvensiya ishiga shtatlardan 55ta delegate qatnashdi, J.Washington Konvensiya ishiga rahbar etib saylandi. James Madison, Aleksandr Hamilton, Benjamin Franklin, Jon Jay va boshqa siyosatchilae ham Konvensiya ishida ishtirok etdilar va Konstitutsiya yaratish bo'yicha ko'plab takliflar va muhokamalarni ilagri surdilar. J.Madison "AQSH Konstitutsiyasi otasi" deb atalgan va Konstitutsiyaning asosiy muallifi va uning dizayni ishlab chiqishda asosiy shaxs bo'lgan. J.Madison va boshqa ishtirokchilar federal tizimni yaratishga qaror qilishdi, ya'ni hukumat vakolatlari markaziy va shtat hokimiyatlari o'rtasida taqsimlanadi. Hukumat tarkibini tuzish uchun esa ikki reja taklif qilindi. Virjiniya rejas i va New Jersey rejas i: Virjiniya rejasiga ko'ra, Kongressning ikkita palatasi bo'lishi kerak edi, bu har bir shtat aholisi soniga qarab vakil tayinlashni nazarda tutardi. New Jersey rejasida esa har bir shtat teng vakillik olishni talab qilgan. Natijada Kengaytirilgan Kompromiss qabul qilindi, bunda Senatdagi vakillik teng bo'lib, Vakillar Palatasida esa shtatlar aholisi soniga qarab vakillik taqsimlandi. Mamlakatning Prezident tomonidan boshqarilishi belgilandi. Shuningdek, hokimiyat Ijroiya, Qonunchilik va Sud tizimlariga bo'linishi belgilab qo'yildi. Dastlab, Konstitutsiyada fuqarolarning asosiy huquqlari ta'minlanmagan edi, ammo bu holat 1791-yilda qabul qilingan Bill of Rights (Huquqlar To'plami) orqali hal qilindi. 1787-yil 17-sentyabrda yangi Konstitutsiya yakuniy shaklga keldi va imzolandi. Biroq, u darhol kuchga kirmadi, chunki u barcha shtatlar tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak edi. Ratifikatsiya jarayoni ancha qiyin bo'ldi, chunki ba'zi shtatlar federal hukumatning kuchlarini cheklashni istadilar. Natijada, Federalistlar (yangi Konstitutsiyani qo'llab-quvvatlovchilar) va Antifederalistlar (qarshilik ko'rsatuvchilar) o'rtasida katta bahslar bo'lib o'tdi. Federalistlar James Madison, Alexander Hamilton, va John Jay tomonidan yozilgan Federalist Papers deb nomlangan qonunlar yordamida Konstitutsiyaning afzalliklarini targ'ib qildilar. New Hampshire shtatining ratifikatsiyasidan so'ng (1788-yil 21-iyun), Konstitutsiya kuchga kirdi. Keyinroq boshqa shtatlar ham ratifikatsiya qildi, va nihoyat, 1791-yilda 13 ta dastlabki shtat Konstitutsiyani tasdiqladi. Konstitutsiya matnini yozish va turli kelishuvlarga erishishda AQSH birinchi prezidenti G.Washington, Filadelfiya Konvensiyasidagi eng yoshi katta delegat B.Franklin, A.Hamilton, keyinchalik AQSHning birinchi tashqi ishlar vaziri bo'lgan J.Jay, Virjiniya rejas i asoschisi

E.Randolfin, Konstitutsiya rasmiy matnini yozgan G.Morris, ikki palatali Kongress tizimini taklif qilgan R.Sherman, J.Dikinson va boshqalar ishtirok etdi. Tomas Jefferson va Jon Adams Konverssiyada ishtirok etmagan bo'lsa-da, Konstitutsiya qabul qilinishini ma'qullagan. Shunday qilib, yangi davlat – Amerika Qo'shma Shtatlarini boshqarish uchun yagona huquqiy asos yaratilgan. Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasi 1788-yilda ratifikatsiya qilinganidan beri 27 marotaba tuzatishlar kiritilgan. Bular quyidalar:

1-dan 10-gachasi tuzatishlar (Huquqlar to'g'risidagi Bill) - 1791 yilda ratifikatsiya qilingan: Ushbu 10 ta tuzatish J. Madison tomonidan kiritilgan bo'lib, asosiy e'tibor shaxs erkinliklarini hukumat aralashuvidan himoya qilishga qaratilgan. Ular Amerika fuqarolik huquqlari va erkinliklari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Birinchi tuzatish: so'z, matbuot, din, yig'ilishlar va petitsiya erkinliklarini kafolatlash to'g'risida; Ikkinchi tuzatish: qurol saqlash va olib yurish huquqini himoya qilish to'g'risida; Uchinchi tuzatish: Fuqarolarni roziligisiz askarlarning aholi uylarida urush yoki tinchlik vaqtida qolishini taqiqlash; To'rtinchi tuzatish: Asossiz tintuvlar va musodalararga yo'l qo'yilmaydi; Beshinchi tuzatish: Hech kim, agarda dalil yoki ayblov xulosasi bo'lmasa, o'lim yoki boshqa dahshatli jinoyat uchun javobgarlikka tortilmaydi. Quruqlik yoki dengiz kuchlarida yuzaga keladigan hollar bundan mustasno. Hech kim guvoh bo'lish kuch bilan majburlanmaydi. Yakuniy hukm e'lon qilinmasdan, shaxs hayotidan yoki shaxsiy mulkidan mahrum qilinmaydi.; Oltinchi tuzatish: Jinoyatda ayblangan shaxs advokat bilan ta'minlanadi va unga qo'yilgan ayblovlar tushuntiriladi, guvoh topish huquqi beriladi; Yettinchi o'zgartirish: Agarda tortishuvlar qiymati yigirma dollardan oshsa, hakamlar hay'ati tomonidan sud muhokamasi huquqi saqlanib qoladi va hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqilgan hech qanday fakt AQShning biron bir sudida boshqacha tarzda qayta ko'rib chiqilmaydi; Sakkizinchi tuzatish: Shafqatsiz va g'ayrioddiy jazo, ortiqcha garov va ortiqcha jarimalarni taqiqlanadi; To'qqizinchi o'zgartirish: Konstitutsiyada shaxsiy huquqlar ro'yxati xalq tomonidan saqlanib qolgan boshqa huquqlarni inkor etmasligini bildiradi. O'ninchi tuzatish: Konstitutsiya tomonidan federal hukumatga berilmagan vakolatlar shtatlar yoki xalq uchun saqlanib qolganligini ta'kidlaydi. O'n birinchi tuzatish (1795). Shtatlarga qarshi da'volar bo'yicha cheklovlar: O'zgartirish jismoniy shaxslarning suveren immunitetn ta'minlab, shtat roziligisiz federal sudga shtat ustidan sudga da'vo qilishiga yo'l qo'yilmaydi. O'n ikkinchi tuzatish (1804). Prezident saylovi tartib-qoidalariga kiritilgan o'zgartirishlar: Ushbu tuzatish Saylov kollejida, Prezident va Vitse-Prezident uchun alohida saylov byulletenlarini yaratish orqali saylov jarayonini aniqlaydi. Bu tuzatishni kiritishdan maqsad 1800 yilgi saylovda ovozlarining hisoblashda chalkashliklar bo'lganligi edi. O'n uchinchi tuzatish(1865). Qullikni bekor qilish: 1 qism. Tuzatish qullik va majburiy qullikni bekor qildi. 2 qism. Kongress bu moddani joriy qilish uchun vakolatga ega. O'n to'rtinchi tuzatish (1868).Fuqarolik va teng himoya: Tuzatish AQShda tug'ilgan yoki fuqarolikka qabul qilingan barcha shaxslarga fuqarolikni berdi va hech bir davlat hech kimni qonunlarning teng himoyasini inkor eta olmasligini kafolatladi. O'n beshinchi tuzatish (1870).Barcha irqalar uchun ovoz berish huquqi: irqi, rangi yoki oldingi qullik holatiga qarab ovoz berish huquqidan cheklash taqiqlandi; O'n oltinchi tuzatish (1913).Daromad solig'i: Ushbu o'zgartirish Kongressga daromad solig'ini joriy etish huquqini berdi, bu federal hukumat uchun asosiy daromad manbaiga aylandi; O'n yettinchi tuzatish (1913). Senatorlarni to'g'ridan-to'g'ri saylash: Ushbu tuzatishdan oldin senatorlar shtat qonun chiqaruvchi organlari tomonidan saylangan. 17-tuzatish senatorlarning to'g'ridan-to'g'ri xalq tomonidan saylanishiga ruxsat berdi va demokratik ishtirokni oshirdi. O'n sakkizinchi tuzatish (1919).Alkogolli ichimliklarni taqiqlash: Ushbu tuzatish AQShda alkogolli ichimliklarni ishlab chiqarish, sotish va tashish taqiqlandi. Biroq, keyinchalik 1933 yildagi 21-tuzatish bilan u bekor qilindi. O'n to'qqizinchi tuzatish (1920).Ayollarning saylov huquqi: 19-tuzatish ayollarga ovoz berish huquqini berdi, bu

gender tengligi uchun tarixiy yutuq bo'ldi; Yigirmanchi tuzatish (1933). Vazifalar shartlaridagi o'zgarishlar: "Oqsoq o'rdak" tahriri" nomi bilan tanilgan, u prezidentlik saylovi va inauguratsiya o'rtasidagi vaqtni ma 20-yanvargacha qisqartirdi va Kongress ochilishini 3-yanvargacha ko'chirdi. Unda, shuningdek, o'lim yoki nogironlik holatida prezidentning merosxo'rligi masalasi ko'rib chiqildi. Yigirma birinchi tuzatish (1933). Taqiqni bekor qilish: Ushbu tuzatish Taqiqni tugatgan va spirtli ichimliklarni qonuniy ishlab chiqarish va sotishga ruxsat beruvchi 18-tuzatishni bekor qildi. Yigirma ikkinchi tuzatish (1951). Prezidentlik muddatini cheklash: U bir kishini Qo'shma Shtatlar Prezidenti sifatida ikki muddatga yoki bir muddat davomida prezidentlik lavozimini egallagan bo'lsa, maksimal 10 yil bilan chegaraladi. Yigirma uchinchi tuzatish (1961). Vashington D.C. uchun saylov ovozlari: Ushbu tuzatish Vashington D.C. saylovchilarni Saylov kollegiyasiga berdi, bu esa poytaxt aholisiga prezidentlik saylovlarida ovoz berish imkonini berdi. Yigirma to'rtinchi tuzatish (1964). Anketa soliqlarini bekor qilish: Bu federal saylovlarda ovoz berish talabi sifatida so'rov soliqlaridan foydalanishni taqiqlab, afro-amerikaliklar va janubdagi kambag'allar uchun katta to'siqni olib tashladi. Yigirma beshinchi tuzatish (1967). Prezidentning vorisi va nogironligi: Prezidentning merosxo'rligi, shu jumladan vitse-prezidentni almashtirish va Prezident layoqatsiz bo'lgan vaziyatlarni hal qilish tartibiga aniqlik kiritildi. Yigirma oltinchi tuzatish (1971). Ovoz berish yoshi 18 ga tushirildi: Ushbu tuzatish saylov yoshini 21 dan 18 ga tushirdi, bu qisman Vetnam urushi davridagi noroziliklarga javoban, yoshlar harbiy xizmatga chaqirilsa, ovoz berish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerakligini ta'kidlagan. Yigirma yettinchi tuzatish (1992). Kongress ish haqini oshiradi: Ushbu tuzatish Kongress maoshlaridagi har qanday o'zgarishlar Vakillarning navbatdagi saylovigacha kuchga kirishini taqiqlaydi. Bu 1789 yilda taklif qilingan, ammo 1992 yilgacha ratifikatsiya qilingan.

Xulosa:

AQSh Konstitutsiyasi inson huquqlari va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lida yaratilgan eng muhim huquqiy hujjatlardan biridir. Uning barqarorligi va samaradorligi moslashuvchanlik va davr talablariga muvofiq o'zgartirishlar kiritish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Konstitutsiyaga kiritilgan 27 ta o'zgartirish har bir bosqichda jamiyatning dolzarb muammolarini hal qilishga va fuqarolik huquqlarini kengaytirishga qaratilgan. Maqolada har bir o'zgartirishning mazmuni, tarixiy ahamiyati va zamonaviy jamiyatga ta'siri tahlil qilindi. Ushbu hujjatning uzoq yillar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmagani uning nafaqat AQSh, balki butun dunyo uchun demokratik qadriyatlar timsoli ekanini ko'rsatadi. Shunday qilib, AQSh Konstitutsiyasi va unga kiritilgan o'zgartirishlar nafaqat tarixiy meros, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim huquqiy va axloqiy asos bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madison, J. (1787). The Federalist Papers. New York: Penguin Classics.
2. Hamilton, A., Jay, J., Madison, J. (1788). The Federalist Papers. Oxford University Press.
3. U.S. National Archives. (2023). The Constitution of the United States. <https://www.archives.gov>
4. Amar, A. R. (2005). America's Constitution: A Biography. Random House.
5. Finkelman, P. (2019). A Brief History of the U.S. Constitution. Cambridge University Press.
6. Schwartz, B. (1992). The Great Rights of Mankind: A History of the American Bill of Rights. Oxford University Press.
7. Kelly, A., Harbison, W., Belz, H. (1991). The American Constitution: Its Origins and Development. W.W. Norton & Company.

8. U.S. Government Publishing Office. (2022). Constitution Annotated: Analysis and Interpretation.
9. Cornell Law School Legal Information Institute. (2023). U.S. Constitution: Amendments. <https://www.law.cornell.edu/constitution>
10. Rakove, J. N. (1996). Original Meanings: Politics and Ideas in the Making of the Constitution. Vintage Books.